


2022- yilning yanvar-martida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 002,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 3,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 115,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,3 % ga yetdi.




2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	5 890,8	7 002,7	103,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 662,4	6 655,8	103,1
mahsulotlarga sof soliqlar	228,4	346,9	103,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 662,4	6 655,8	103,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 527,1	1 703,0	103,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 760,4	2 045,1	96,7
sanoat	1 205,0	1 377,6	93,8
qurilish	555,4	667,5	102,8
xizmatlar	2 374,9	2 907,7	107,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	586,4	745,1	114,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	430,8	501,7	111,3
boshqa xizmat tarmoqlari	1 357,7	1 660,9	103,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 536,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 25,6 % ni, sanoat tarmog'i 20,7 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 43,7 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,1	95,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,9	5,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	27,0	25,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	31,1	30,7
sanoat	21,3	20,7
qurilish	9,8	10,0
xizmatlar	41,9	43,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,4	11,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,6	7,5
boshqa xizmat tarmoqlari	23,9	25,0

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 25,6 %), sanoatda – 93,8 % (20,7 %), qurilishda – 102,8 % (10,0 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (43,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,0 % (11,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,3 % (7,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,9 % dan (25,0 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 1,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Sanoat tarmog'i esa –1,2 f.p. (2021- yilning yanvar-martida salbiy –1,5 f.p.) salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi

2022- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 115,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 121,8 % va qurilish tarmog'ida – 116,9 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 66,7 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida –67,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

67,3 %

2022- yil

66,7 %